

O'ZBEKISTONDA "ELEKTRON HUKUMAT (E-GOVERNMENT)" TIZIMINING IJTIMOIY JARAYONLAR RAQAMLASHUVIGA TA'SIRI

Umrzaqova Gulnoza Umarovna

Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat texnikumi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga jadal kirib bormoqda. Shu jarayonda "Elektron hukumat" tizimi davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning muhim vositasiga aylandi. O'zbekistonda davlat organlari faoliyatining ochiqdigi va samaradorligini oshirish, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash hamda fuqarolar va davlat o'rtasidagi elektron hamkorlikni rivojlantirish maqsadida elektron hukumat tizimi izchil takomillashtirilmoqda. Mazkur maqolada "Elektron hukumat" tizimining ijtimoiy jarayonlar raqamlashuv darajasiga ta'siri, uning amaliy ahamiyati hamda raqamli xizmatlarning jamiyat rivojidagi o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *"Elektron hukumat, raqamli transformatsiya, Yagona identifikatsiya tizimi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, ochiq ma'lumotlar portali, digital office, axborot texnologiyalari, davlat xizmatlari.*

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olishni ko'zda tutadi. Yangi texnologiyalar va raqamli vositalar hukumat bilan o'zaro hamkorlik jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtiradi, davlat sektorida shaffoflik va hisobdorlikni yaxshilaydi va milliy iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shadi.

Elektron hukumat — bu davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi hisoblanadi [2].

Mamlakatimizda elektron hukumat tizimi O'zbekiston O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida» va «Elektron hukumat to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirib kelinmoqda. Elektron hukumat tizimini joriy etishda O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni, «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonuni "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi Qonuni, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari

faoliyatining ochiqqligi to'g'risida"gi Qonuni kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirilishiruvchi tashkilot bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi esa elektron hukumat sohasidagi vakolatli organ bo'lib, elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi. "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi "Elektron hukumat" tizimi loyihalarini amalga oshirishning me'yoriy-metodik ta'minlanishini tashkil qilish, davlat organlarida foydalanilayotgan axborot tizimlari, axborot resurslari va ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish va integrasiyalashni ta'minlaydi. Davlat organlari elektron hukumat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Elektron hukumat tizimini shakllantirishda quyidagi yirik loyihalar amalga oshirildi:

- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz);
- Ochiq ma'lumotlar portali (data.gov.uz);
- Me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portali (regulation.gov.uz);
- "Litsenziya" axborot tizimlari kompleksi (license.gov.uz);
- "Yagona darcha" markazlari faoliyatini avtomatlashtirish bo'yicha axborot tizim (birdarcha.uz).

2023 yilga kelib, Elektron hukumatning Yagona identifikasiya tizimi (id.egov.uz) takomillashtirilib, foydalanuvchilar soni 7 mln dan ziyodni tashkil etib, mazkur tizim orqali fuqarolar davlat idoralarining 245 dan ziyod axborot resursidan foydalanish imkoniyati yaratildi[3].

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (YAIDXP, my.gov.uz) 400 dan ortiq davlat xizmatidan inson omilisiz elektron tarzda foydalanish imkoniyati yaratildi va elektron xizmatlarga bo'lgan talab 10 barobarga oshdi (937 mingdan 9,5 mln taga yetdi).

Yagona portal orqali 2020 yilda 9,8 mln ta xizmat ko'rsatilgan. 2023 yilda esa, mazkur portalda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 3,6 milliondan ortgan. Shuningdek, foydalanuvchilar tomonidan portal xizmatlaridan yil boshidan jami 7,9 mln. marotaba foydalanilgan (o'tgan yil shu davriga nisbatan o'sish 145 foiz).

Shu bilan birga, Yagona portalning mobil ilovasida 168 ta (o'sish 160%) elektron davlat xizmatlari aholi va yuridik shaxslarga taqdim etilmoqda.

Aholi va tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda qulayliklar yaratish maqsadida, hududlarda 1 038 ta pochta aloqasi ob'ektlarida YAIDXP platformasidan foydalangan holda 62 turdagi davlat xizmatlarini taqdim etish yo'lga qo'yilgan.

Elektron hukumatning Idoralararo integrasion platformasi takomillashtirilib, 2022 yil davomida davlat organlarining 120 dan ortiq axborot tizimlari o'rtasida 1 500 mln dan ortiq axborot almashinuvi amalga oshirildi, bu esa faqatgina qog'oz xarajatlari uchun oyiga 8,3 mlrd so'm, yiliga esa 100 mlrd so'm mablag' tejab qolinishiga erishilmoqda.

Shu bilan birga, 2023 yil I choragi davomida Elektron hukumatning idoralararo integrasion platformasi orqali 595 mln dan ortiq axborot almashinuvi amalga oshirildi.

Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining ma'lumotlarini tijorat tashkilotlariga taqdim etish Raqamli ma'lumotlar platformasi orqali yo'lga qo'yilgan bo'lib, unga ulangan xizmatlar soni 64 tani, qabul qiluvchi tashkilotlar soni esa 33 tani tashkil etmoqda. Platforma orqali amalga oshirilayotgan kunlik so'rovlar soni 32,8 mingga, choraklik ko'rsatkich esa 2,9 mln ga yetgan.

Bundan tashqari, Elektron hukumatning ma'lumotnomalar va klassifikatorlar registri (cs.egov.uz)ga 2023 yilga kelib 16 ta tashkilot tomonidan 49 ta klassifikator kiritilgan.

Axborot tizimlari va resurslarining yagona reestri axborot tizimi (reestr.uz) ishga tushirilib, 157 ta davlat organlarining 730 ta axborot tizimlari va resurslari ro'yxatga olindi.

Elektron hukumatning Idoralararo integrasion platformasi takomillashtirilib, davlat organlarining 130 dan ortiq axborot tizimlari o'rtasida 2023 yil 1 sentyabr holatiga 1 500 mln dan ortiq axborot almashinuvi amalga oshirildi.

Elektron hujjat almashinuvini ko'zda tutuvchi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi ishlab chiqilib, bugungi kunda 19 575 ta vazirlik, idoralar va ularning tizim tashkilotlarning 83,8 mingdan ortiq foydalanuvchilari ulangan bo'lib, tizim orqali 3 631 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlaridan kelib chiqadigan 107 250 mingdan ortiq topshiriqlarning markazlashgan monitoringi olib borilmoqda.

Shuningdek Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining 70% ga «Ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimining takomillashtirilgan talqini «edo.ijro.uz» elektron hujjat aylanish moduli o'rnatildi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari, ularning xodimlari o'rtasida xizmat yozishmalarini himoyalangan tarzda amalga oshirish uchun HUMO milliy messenjeri joriy qilindi va bugungi kunda 52 917 ta foydalanuvchi mavjud.

Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari uchun ma'muriy tartib-taomillarni optimallashtirish va boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish – "Digital office" elektron tizimi ishlab chiqilib, tajriba sinov tarzida joriy etildi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimi (e-qaror.gov.uz) tizimi orqali bugungi kunda umumiy 387 299 ta hujjatlar rasmiylashtirildi. Xususan: 215 133 ta hokim qarorlari, 92 437 ta farmoyishlari va 79 729 ta kengash qarorlari imzolangan.

Erishilgan natijalar O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilamoqda. Xususan, Elektron hukumat reytingida (E-Government Development Index – EGDI) mamlakatimiz 193 ta davlat orasida 2020 yilda 87-o'rinni egallagan bo'lsa, o'tgan yilda 18 pog'onaga yuqorilab, 69-o'ringa ko'tarildi.

«Open data Inception»ning Ochiq ma'lumotlar manbalari va ular soni bo'yicha 201 ta mamlakat orasida O'zbekiston 4-o'rinni egalladi.

Bu sa'y-harakatlarni yanada rivojlantirish maqsadida eng zamonaviy tipdagi ma'lumotlarni saqlash markazi tashkil etildi.

“Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Elektron hukumat fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va takomillashtirish uchun axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishni nazarda tutadi.

Biroq, mamlakatimizda yelektron hukumatni rivojlantirish hali ham takomillashtirishni talab qiladi. Elektron xizmatlar foydalanuvchilari duch keladigan ba'zi muammolar orasida qulay interfeysning yo'qligi, elektron identifikasiya qilish imkoniyatlarining cheklanganligi va eng yuqori talab davrida serverlarga yuqori yuklanish kiradi.

Mamlakatimizda e-hukumatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun axborot tizimlari va AKT infratuzilmasini modernizasiya qilish, dasturiy ta'minotni yangilash va yangi elektron xizmatlarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, barcha toifadagi fuqarolar, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash zarur.

Bundan tashqari, e-hukumat tizimini rivojlantirish elektron identifikasiyalash va axborot almashishning markazlashtirilgan tizimini ta'minlash uchun turli davlat organlari va idoralari o'rtasidagi hamkorlikni taqozo etadi.

Umuman olganda, mamlakatimizda “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish davlat xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirish, davlat apparati faoliyatining ochiqqligi va samaradorligini oshirish, shuningdek, fuqarolar hayotini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq, bu potensialni ro'yobga chiqarish AKT va tegishli islohotlarni davom ettirishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “RAQAMLI O'ZBEKISTON — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 05.10.2020 yil PF-6079-sonli Farmoni
2. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar>
3. <https://www.mitc.uz/uz/pages/egovernment/2074>